



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

## THE STUDY OF THE HISTORY OF HORSEBACKHOOD TRADITIONS IN HISTORICAL STUDIES

*Salimjon Valiyeyich Yuldoshev*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences*

*Acting Professor of the Department of "History of Uzbekistan"*

*Fergana State University,*

*Email: [salimjonyoldoshev4@gmail.com](mailto:salimjonyoldoshev4@gmail.com)*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "Chertemlik" fortress, "heavenly horse", nomadic herdsman, Kyrgyz, Karakalpak, face, kurama, Turk, Arab, goat (kokboru), racing (bayga, kur-bayga), crowd racing, Karabayir, argumaq, Kyrgyz breed, alfalfa feed, hippologist, selection of horses, feeding, horse equipment.

**Received:** 02.07.26

**Accepted:** 03.07.26

**Published:** 04.07.26

**Abstract:** This article examines the history of the emergence of horse breeding, its economy, traditions and experiences, which have evolved over centuries from natural conditions and economic traditions and have been refined through stages of socio-economic development, based on scientific and field ethnographic records by Russian researchers. The article provides a deeper understanding of the traditions and ethnohistorical processes that have existed in our region since ancient times, based on the analysis of research from the mid-19th to the early 20th centuries.

### RUS TARIXSHUNOSLIGIDA YILQICHILIK XO'JALIK AN'ANALARI TARIXINI O'RGANILISHI

*Salimjon Valiyeyich Yo'ldoshev*

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

*"O'zbekiston tarixi" kafedrasi professori v.b.,*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Email: [salimjonyoldoshev4@gmail.com](mailto:salimjonyoldoshev4@gmail.com)*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** "Chertemlik" qo'rg'oni, "samoviy ot", ko'chmanchi chorvador, qirg'iz, qoraqalpoq, yuz, qurama, turk, arab, uloq (kokboru), poyga (bayga, ko'r-bayga), olomon poyga, qorabayir, arg'umoq, qirg'iz zot, beda

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada asrlar davomida tabiiy shart-sharoit va xo'jalik an'alaridan kelib chiqqan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarida sayqallanib borgan yilqichilikning paydo bo'lish tarixi, xo'jaligi,

ozuqasi, ippolog, otlarni tanlash, boqish, ot anjomlari.

an'ana va tajribalari haqida rus tadqiqotchilari tomonidan ilmiy hamda dala etnografik yozuvlari asosida mushohada yuritiladi. Maqola XIX asr o'rtalaridan to XX asr boshlarigacha bo'lgan tadqiqotlar tahlilidan mintaqamizda qadimdan mavjud bo'lgan a'analарimiz, etnotarixiy jarayonlarni chuqurroq idrok etishga imkon beradi.

## ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КОННЫХ ТРАДИЦИЙ В РУССКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

**Салимжон Валиевич Йулдошев**

*Доктор (PhD), и.о профессора кафедры «История Узбекистана»*

*Ферганский государственный университет*

*Узбекистан, Фергана*

*Email: [salimjonyoldoshev4@gmail.com](mailto:salimjonyoldoshev4@gmail.com)*

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** крепость «Чертемлик», «небесный конь», кочевой скотовод, киргизы, каракалпак, лицо, курама, турок, араб, коза (кокбору), скачки (байга, кур-байга), скачки с участием толпы, карабайыр, аргумак, киргизская порода, люцерновый корм, ипполог, селекция лошадей, кормление, конная амуниция.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается история возникновения коневодства, его экономики, традиций и опыта, которые развивались на протяжении веков в естественных условиях и экономических традициях и совершенствовались на этапах социально-экономического развития, на основе научных и полевых этнографических данных российских исследователей. Статья позволяет глубже понять традиции и этноисторические процессы, существовавшие в нашем регионе с древних времен, на основе анализа исследований середины XIX – начала XX веков.

**Kirish.** Xalqimizning boy sermazmun merosini o'rganar ekanmiz, turkiy xalqlar dunyo xalqlari orasida eng qadimiy hamda madaniy va ommaviy qadriyatlarga boy xalqlardan hisoblanadi.

Ajdodlarimiz o'zining ko'p ming yillik tarixida jangu-jadallar shuningdek tinchlik va madaniy yuksalish davrlarini boshidan kechirgan. O'tmishda ota-bobolarimiz juda qadimgi davlatchilik an'alariga ega bo'lgan boy ma'naviyat va moddiy yodgorliklarni meros qoldirishgan.

Qadimgi davrlardan boshlab ot bilan bog‘liq o‘yin turlari to‘g‘risida ma‘lumotlar, haqiqiy kurash sahnalari tushirilgan tasviriy asarlar saqlangan. Jumladan, skiflarning “Chertemlik” degan qo‘rg‘onidan topilgan va kumushdan yasali, oltindan sayqal berilgan vazasimon dastali ko‘zaga qavariq shaklida tushirilgan tasvirlar alohida diqqatga sazovordir. Unda Asov otni jilovlash marosimi tasvirlangan bo‘lib, skif bir qo‘lida otning jilovidan ushlagan bo‘lsa, ikkinchi qo‘lida otning oldingi oyog‘ini ushlab, qayirmoqda. Yana boshqa shakllarda skiflarning ot ustida kurashish jarayoni, kurashga hamla qilib tayyor turgani kabi sahnalar tushirilgan.[1]

Farg‘ona vodiysi tabiiy geografik joylashuvi, iqlimining mo‘tadilligi, oqar suvning seroblighi, tarkibi jihatidan eng yaxshi serhosil tuproqning mavjudligi juda qadimdan boshlab, O‘rta Osiyoning boshqa hududlariga qaraganda qishloq xo‘jaligining muttasil rivojlanishini ta‘minlagan. Jumladan, Dovon (Farg‘ona) davlatini xitoyliklar bir necha marta kelib zabt eta olmaydi. Bu yerdagi shaharlar, boy deqqonchilik madaniyati va “samoviy ot”larini maqtab yozishgan. Ular chavandozlik, merganlik va yakka kurashning usullarini yaxshi egallagan edilar.

Vodiyini har jihatdan o‘rgangan olim A. Middendorf “Farg‘ona vodiysining qadimgi shuhrati shunga asoslanadiki, uning barcha tabiiy sharoiti serunum qishloq xo‘jaligiga qulaylik tug‘dirgan”[2] deb yozadi.

Farg‘ona vodiysining tabiiy sharoiti sug‘orma dehqonchilik bilan birga chorvachilikni rivojlantirish uchun ancha qulay bo‘lib, adirli, tog‘ oldi hududlarida esa ko‘chmanchi chorvador qirg‘iz, qoraqalpoq, yuz, qurama, turk va arablar chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Yoz oylarida chorva uchun eng yaxshi yaylov Oloy vodiysi hisoblangan. Qish oylarida esa chorva boqish uchun eng qulay hudud Markaziy Farg‘ona cho‘li (mahalliy xalq o‘rganilayotgan davrda bu hududni Qoraqalpoq cho‘li deb atashganlar) hisoblangan.

**Asosiy qism.** Chorvachilikda asosan echki, ot, qoramol, tuya boqilib, bu borada ham vodiyning ko‘chmanchi xalqlari orasida ixtisoslashuv jarayoni bo‘lib o‘tgan. Masalan, qirqizlar XIX asrning boshlarida asosan yilqichilik bilan shug‘ullanganlar. Lekin ular Qo‘qon xonligining ta‘siri kuchayishi bilan asr o‘rtalariga kelib asosan qo‘y boqishga ixtisoslashtirilgan[3].

Yuzlar va turklar esa qo‘ychilik, quramalar yilqichilik va echki boqishga ixtisoslashgan edilar[4].

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga qo‘shimcha ravishda shuni aytish joizki, hozirgi kunda ham Tojikiston Respublikasi Asht tumanida yashovchi qurama xalqlarida yilqichilik va echki boqish ixtisoslashgan holda yaxshi saqlanib qolgan va xo‘jalikning asosiy tarmog‘i hisoblanadi.

XIX asr va XX asrda O‘rta Osiyoga sayohat qilgan ko‘plab rusiyzabon tarixchi, etnograf, biologlar va sayohatchilar (F.Nazarov, Xoroshin, A.F.Middendorf, Namevskiy va boshqalar)ning

asarlari hamda “Turkestanskiy sbornik”ka kiritilgan ma’lumotlarida shu yerlik xalqlarning hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar va rasm-rusumlari to’g’risida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

V.Firsovning 1895 yilda “Конногосоводства” (Ot zavodi)jurnalining №5, 6, 7-sonlarida chop etilgan va “Turkiston to’lami”ning 479-tomiga jamlangan “Туркестан и туркестанская породы лошадей” (Turkiston va Turkiston ot zotlari)[5] nomli maqolalar to’plamida Turkiston o’lkasidagi barcha ot zotlariga to’xtalib, ularga tavsif berib o’tgan. Maqolada turkman, qirg’iz, qipchoq, mongol, o’zbek otlari to’g’risida batafsil ma’lumotlar bor.

Lekin ma’lumotlarning ichida umumiy nom bilan “qorabayir, arg’umoq, qoraqirg’iz” otlarini ham bir so’z bilan ayrim hollarda “turkman qorabayir”lari deb atab o’tadi. Shu o’rinda to’g’rilab o’tish kerakki, “qorabayir, arg’umoq, qurama zotli otlar asosan Farg’ona vodiysida yashovchi o’zbek, qirg’iz, tojik xalqlarining qadimiy ot zotlari hisoblanadi.

Muallif otlarga tavsif berar ekan, turkiy xalqlardagi xalq o’yinlaridan uloq (kokboru), poyga (bayga, ko’r-bayga), olomon poyga kabi o’yinlarga ham tavsif berib o’tadi. To’plamning 43 sahifasida turkman zotli otlarning kelib chiqishi tarixini “Amir Temur faoliyati davrida eng yuksak cho’qqisiga yetdi. Chunki, ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki”, - deydi muallif, - “Kerman shoir Temur 14000 arab biyalarini O’rta Osiyoga olib kelib, turkman arg’umoqlariga chatishtirib, O’rta Oiyodagi tez harakatchan, boshqaruvi oson, issiq va sovuq iqlimga chidamli, ayniqsa, O’rta Osiyo xalqlari o’yiniga mos tusha oladigan yana bir ot zotini yaratdi.” - deydi.

“Lekin tarixiy ahamiyatga ega bo’lmagan bu shoirona hayajon bilan yozilgan ertagi bilan u arab, Vizantiya, fors tarixi bilan yaxshi tanish bo’lmaganligini ko’rsatib turibdi. Arablar O’rta Osiyoga faqatgina jangovar otlari bilan kelgan edi, xolos. Ular O’rta Osiyo mahalliy otlaridan o’z faoliyatlarida foydalanishgan. Amir Temur olib kelgan 14000 ot turkman o’lkasida emas, balki Samarqand atrofida hukmdorning qo’rasida qolgan bo’lsa, unday zotli otlarning (arab zotli) izi Samarqand atrofida ko’rinmaydi. Arab zotli otlarning kelib chiqishi tarixiga nazar solsak, xetlarga rahmat aytish kerakki, ular tufayli turkiy xalqlarning otlari arab yerlariga yetib borgan edi. Qorabayir, arg’umoq, qirg’iz zotli otlar tom ma’noda qadimiy mahalliy otlardir”, deb Kerman shoirning xato fikrlariga aniqlik kiritmoqchi bo’lgan. Shu o’rinda muallifning fikriga qo’shiladigan ma’lumotlarni biz, V.Firsovning XIX asr oxiridagi mavjud otlarning fotosuratlaridan namunalar keltirilishi orqali ham isbotini ko’rishimiz mumkin[6]. Bu yerda mualliflar qayd etgan zotlar ham noto’g’ri talqin etilgan. Ya’ni Qorabayir, arg’umoq ot zotlari bu o’zbek zotlari hisoblanadi. Qirg’izlarning qirg’iz zotli otlari ham o’zining gavda tuzilishi, yunglari bilan Qorabayir zotidan farq qilsada, lekin aslo chidamlilik va jussasi ham aslo kam emas.

Rus sayyohlari, etnolog, yilqichilik soha mutaxassislarini O’rta Osiyo xalqlarining xo’jalik hayoti bilan bunchalik chuqur o’rganishidan maqsadlari, Chorizmning Markaziy Osiyodagi

hukmronligini uning butun boyliklarini o'zlashtirish, ega bo'lish ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Kaspiy orti viloyati ot zavodining boshqaruvchisi Sotnik Mazaining Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan maktubida quyidagicha ma'lumot uchraydi: "1903 yoki 1902 yillar aniq yodimda yo'q, Kaspiy orti viloyatiga ingliz sayyohlari kelishdi. Ular bilan birga harbiylar ham bor edi. Sayyohlar otxonaga kirishga ruxsat olgach, ulardan biri menga faqat ularni axaltekin zotli otlar qiziqtirishini aytib o'tdi. Inglizlar axaltekin zotli otlarni juda ham qadrlashadi, biz (ruslar) bu zotli otlarning qadriga yetmayapmiz. Natijada inglizlar 1904 va 1905 yillar davomida arman va fors savdogarlari orqali 200 biyani sotib olib ketishga muvaffaq bo'ldilar, biz esa yo'qotdik. Endigi vazifa qolgan qadimiy nasllarni saqlab qolish kerak, yo'qsa rus yerlaridan ular butunlay yo'q bo'lib ketadilar. Inglizlar esa bu zotli otlarni harbiy otliq kavaleriya uchun o'ta muhimligini tushunib yetganlar[7].

Aynan Turkiston otlarini saralash, rus armiyasi uchun esa otlarni tanlash va Rossiyaga jo'natish maqsadida 1907 yilda Farg'onada 12-26 may kunlari "Farg'ona" nomli poyga jamiyati Скаковое общества (Ot poygasi) tuzilgan edi. Uning prezidenti etib viloyat harbiy gubernatori va vitse-prezidenti etib starshina M.Yudin tayinlandi. U o'zining "Ферганское скаковое общества" (Farg'ona ot poygasi jamiyati) nomli maqolasida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Qadim zamonlardan beri O'rta Osiyo, ayniqsa, Farg'ona vodiysi o'zining chiroyli, uchqur otlari bilan mashhur bo'lgan. Xonliklar davrida ham bunga e'tibor berib, bir necha yilqichilik podalarida o'zlarining arg'umoq, qorabayir zotli otlarini ko'plab ushlab turganlar. Hatto o'ziga to'q oilalar, kambag'al xonadonlarida ham otlar boqishgan. ...Bunday odat, ya'ni otlarni har bir xonadonda bo'lishi, avvalo Markaziy Osiyo xalqlarining biror bir bayramlari, to'ylari poygasiz, uloqsiz o'tmaydi. Aynan shu zotli otlar (qorabayir, arg'umoq) ularning milliy o'ynlariga chidamli bo'lganligi uchun ham ko'paytirilgan[8]". Qorabayir zotli otlar to'g'risida A.F.Middendorf, naturalist Vilkinslar ham o'z asarlarida qadimiy "samoviy ot"larning avlodidir deb atashgan[9].

Shu o'rinda V.Firsov keltirgan ma'lumotlarga e'tibor bersak, Markaziy Osiyo xalqlaridan qipchoq, qirg'iz, qoraqirg'iz, tojik, o'zbeklarning ot tanlashi, boqishi, zotlarini ko'paytirishi, ularning munosabatlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Qipchoq va qoraqirg'izlar, qirg'izlar singari otlar bilan qo'pol muomalada bo'ladilar. O'troq qipchoqlar biroz yumshoqroq muomalada bo'lib, ularga musulmonchilik ta'siri bo'lgan. O'zbeklar esa tirishqoqlik bilan nasldor otlarni ushlashga va ularga yaxshi munosabatda bo'lib borishadi"[10].

... "O'troq o'zbeklar, sartlar (tojiklar) barcha o'troq aholi otlarni faqat quruq yoki ho'l beda, arpa va jo'xori bilan boqadilar. Barcha Turkiston aholisida yalama tuz berish odati mavjud"[11].

Turkiston xalqlarini aynan beda ma'suloti bilan otlarni boqishi juda qadimdan ma'lum. Bu ozuqabop o'simliklarning vatani ham O'rta Osiyo hisoblanadi. Yilqichilikni rivojlanishi beda

ozuqasini, o'simligini butun dunyoga yoydi. Markaziy Osiyodagi beda o'simligining urug'i Xitoyga, G'arbiy Yevropaga, Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliyagacha, qisqasi butun dunyoga tarqaldi. Shu o'rinda maqola muallifi K.Timaev beda urug'ini yetishtirish va katta talab bo'layotgan davlatlar Amerika va Fransiyaga imperiya orqali jo'natishni taklif etadi[12].

O'rta Osiyo otlarini o'rganish, ularni tanlash uchun kelgan ippolog (otlar nasli bilan shug'ullanuvchi)lar nafaqat otlar to'g'risida balki ot bilan bog'liq urf-odatlar, o'yinlar, ot boqish, ozuqalari to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

Ot tanlash to'g'risida XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari etnografiyasini o'rgangan olim A.Shishov qorabayir zoti qirg'iz va o'zbek otlari ekanligi, hatto Ksenofon berib o'tgan ta'riflarni keltirib, otlarni tanlash va boqish, ot anjomlari hatto otlarni yopinchiqlarga o'rab boqishganliklari to'g'risida ma'lumot beradi[13].

"Turkiston to'plami"ning 501-tomiga kiritilgan "Коневодства Туркестана" (1909 y.) (Turkistonda yilqichilir) nomli maqolada Sirdaryo, Yettisuv, Shimoliy-sharqiy Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlardagi yilqichilik xo'jaligi tahlil qilinib, butun Turkiston o'lkasida taxminan 9.00.000 ot mavjudligi, bu otlar aholi e'tiyojlaridan tashqarida bo'lib, ular poda-poda bo'lib yaylovlarda yurganligini, agar aholi qo'lidagi otlarni hisoblaganda faqatgina Farg'ona vodiysining o'zidagina 3 mln.ga yaqin ot borligi qayd etiladi[14].

**Xulosa.** Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa chiqarish mumkinki, yilqichilik Markaziy Osiyoda rivojlanganligidan dololat beradi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida ot boqishga alohida e'tibor qaratilgan. Hamda bu jarayon bilan bog'liq urf-odatlar, qishloq xo'jaligida beda, arpa, jo'xori yetishtirishni, hunarmandchilikning egar-jabduq yasash sohasi ham birgalikda rivojlanib bordi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ot boqish tajribasi ham shakllanib, avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan. Shuning uchun ham xo'jalikning bu sohasi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi rusiyzabon tarixchi, etnograf, sayohatchilarning estalik va yig'gan rasmiy ma'lumotlarida ko'plab uchraydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Искусство первобытного общества и древнейших государств на территории СССР. М., «Изобразительное искусства», 1971. 226-229-расм.
2. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины СПб. 1982., С.12.
3. Погорильский П., Батраков В. Экономика кочевого аула Киргизстана. – М.1939. – С.19.
4. Насриддинов К. Чор мустамлакаси арафасида Фарғона водийсининг қишлоқ хўжалиги. //ЎЗМУ хабарлари. – Т., Университет. 2000., 4-сон. – Б.37-38.

5. Фирсов С. Туркестан и Туркестанские породы лошадей. Туркестанский сборник. 479 том, 1909. – С.130.
6. Фирсов С. Туркестан и Туркестанские породы лошадей. Туркестанский сборник. 479 том, 1909. – С.130.
7. Туркестанская сборник. Том 537. 1909. – С.21
8. Туркестанская сборник. Том 431, 1982. – С.161-163.
9. Туркестанская сборник. 1982., Том 466, 1982. – С.1-61.
10. Фирсов С. Туркестан и Туркестанские породы лошадей. Туркестанский сборник. 479 том, 1909. – С.138-139
11. Ўша тўплам. – С.145
12. Ўша тўплам. Том 510, 1909. Сантонии и люцерна. Авт. Статъе К.Тимаев. Том 510, 1909. – С.114-115.
13. Шишов.А. Сарты этнографическое и антропологическое исследование. Часть I. Этнография. Т., 1904. «Скотоводства». – С. 225-226.
14. «Коневодства Туркестана». «Туркестанский сборник» Т.501,1909. – С.53.